

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI**

*Obidjonova Ruxshona*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

*Tel.: 95 774 31 22; email:ruxshonaobidjonova0212@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktab yoshidagi bolalarda darsni mazmundor o'tishning oson yo'lini va diqqati past bo'lgan yoki sust o'zlashtiruvchi bolalarni dars jarayoniga tez va oson olib kirish yo'lini ko'rsatib beradi.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy

va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Individual ta'lim o'quv tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergen yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan.

**Kalit so'zlar:** kalit so'zlar: ta'lim, integratsiya, ped texnologiya, zamonaviy texnologiya, pedagog, didaktika, didaktik o'yinlar texnologiyasi va boshqalar

Texnologiya so'zi grekcha tildan olingen bo'lib mahorat degan ma'noni anglatadi. Demak pedagogik texnologiyalar deganda pedagogik mahorat tushuniladi. Hozirgi kunda ped texnologiyadan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, chunki ayni paytda bolalar bilan ishlash va ularning psixologik holati bo'yicha ish olib borish ancha mashaqqatni kasb etadi. Shuningdek zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ishlash ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining didaktika bilan bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining didaktik tizimi shundan kelib chiqadiki, ikki tomon – o'qitish va o'qish – ta'lim jarayonida yaxlitlikni tashkil qiladi va didaktikaning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini dasturlashtirilgan, muammoli,

rivojlantiruvchi o'qitish, gumanistik (insonparvarlik) psixologiya (K.Rodgers), kognitiv psixologiya (J. Bruner), Rossiyada 80-yillar o'qituvchilovatorlarning pedagogik texnologiyasi, hamkorlik pedagogikasi, masofaviyta'lim, modulli ta'lim singari yo'naliishlar tashkil qiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalariga ta'lim oluvchi shaxsining qiziqish va ehtiyojlarini, individual sifatlarini, ayrim sohalarda kuchli namoyon bo'ladijan bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Bunda har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayoni, o'zgacha

yondoshuvli ta'lif orqali bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o'tishini ta'minlovchi jarayon tushuniladi.

Ayniqsa zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ularni innovatsiya bilan bog'lash orqali yaxshi natijaga erishish mumkin. "Innovatsiya" (lot. "novatio" – yangilash, ingl. "innovation" - yangilik kiritish) yangilash, o'zgartirish, tatbiq etish, qo'llash degan ma'nolarni bildiradi. Har qanday yangilik ham innovatsiya bo'lavermaydi, balki mavjud tizimning samaradorligini yuqori darajada oshirishga olib keladigan o'zgarish, yangiliklarga innovatsiya hisoblanadi. "Innovatsiya" tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda paydo bo'lib, bir madaniyat turlarini ikkinchi bir madaniyatga kiritish tushunilgan.

Ped texnologiyalarning har qanday innovatsiya bilan bog'lash malum bir qolipga asoslanadi. Chunki maktab yoshidagi bolalarga qo'llaniladigan har qaysi texnologiya ularning psixologiyasiga ham fiziologiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

XIX asrda madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda paydo bo'lib, bir madaniyat turlarini ikkinchi bir madaniyatga kiritish tushunilgan bo'lsa, hozirgi asrda ta'lif va texnologik innovatsiyalar yetakchi o'rinnegallaydi.

Ped texnologiyaar ta'lif oluvchilarni mustaqil bilish jarayonlarini

faollashtirish asosida, ularning tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi turli xil strategiyalar majmuasidan iborat. Bu usullarda bilimlarni egallash, o'zlashtirish uchun o'quv maqsadi aniq qo'yiladi, motiv hosil qilish va o'quvchi tomonidan materialni o'zlashtirishga imkon beradigan turli xil sharoit yaratiladi. Ped texnologiyalardan foydalanishdan maqsad shuki, o'quv faoliyatini turli xil shaklda, qiziqarli, jonli, sermazmun, mahsuldor qilib tashkil qilish hamda jadallashtirish, faollashtirishdir. Bunda o'quvchining mustaqil fikrashi rivojlanadi, bilimi ortadi, mustahkamlanadi, muloqot malakalari takomillashadi, shaxsiyati shakllanadi va o'quv jarayonining samaradorligi ortadi. Ped texnologiyalardan foydalanilganda shaxsning barcha psixik bilish jarayonlari (sezgi, diqqat, idrok, tasavvur, xotira, aql, tafakkur, nutq, xayol), psixik holatlar (his-tuyg'u, emotsiya, qiziqish, iroda, ruhlanish) faol ishga tushib, talaba vazifani bajarish, muammoni yechish uchun mustaqil ravishda izlanishga, qidirishga, fikrlash doirasini kengaytirishga va rivojlantirishga yo'naltiriladi. Pedagogik adabiyotlarda 100 dan ortiq metod, texnologiya va strategiyalar bayon qilingan.

Xususan:

- "Miya hujumi" ("Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi")
- "Kim ko'proq, kim tezroq?" / "Blits-so'rov"
- "Muammoli vaziyat"
- "Akademik munozara"
- "Bahs-munozara" / "Debat"

- “Buni bilasizmi?” / “Differensial diagnostika”
- “Rolli o’yin”
- “Bumerang” / “Charxpalak”
- “Qor bo’ron”
- “Akvarium”
- “Uch bosqichli intervyu”
- “Qora quti”
- “Sinkveyn”
- “Pinbord”
- Asalari galasi”
- 3x4”
- “Nazariya va amaliyot”
- “Esse”
- “Muzyorar”
- “Kubik”
- “Intervyu”
- “Press-konferensiya”
- “Intellektual futbol”  
    “Toifalash jadvali”
- “Zinama-zina”
- “Rezyume” / “yelpig’ich”
- “Venn diagrammasi”
- “Pinbord”
- “Klaster” (Tarmoqlar)
- “Nima uchun?”
- “Qanday?”
- “Baliq skeleti”
- “Nilufar guli”
- “Insert”
- “SWOT-tahlil”
- “FSMU”
- “Konzeptual jadval”
- “BBB”
- “Kaskad”
- “Piramida” / “Ierarxiya”
- “T-sxema”
- “Assesment”
- “Aql xaritasi” (“Mind map”)

1.Azizzojaeva N.N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» -T.: 2003

174 b

- 2.Selevko G.K. Sovremennie texnologii. Moskva, Narodnoe obrazovanie. 199
- 3.R.A.Mavlonova  
M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.:O'qituvchi  
N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi  
O'zMKN.T.: 2009-yil.
- 4.ww. ziyonet.uz
- 5.www. edu.uz

### **Adabiyotlar**

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. Boshlang'ich ta'lim. "Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi". 1,7 – Maxsus sonlar. – T.: "Sharq". 1999.
2. H . Jamaloxonov . Hozirgi o'zbek adabiy tilida. Toshkent 2005
3. M.Hamrayev. O'zbekiston Respublikasi va oliy o'rta ta'lim vazirligi Toshkent. "Iqtisodiyot Moliya". 2007. 2017.2022y
4. Shodiyeva B. 3-sinf. III qism. "Novda edutainment"